

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### TEAM UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, shuningdek, ilg'or jahon ta'lim standartlariga muvofiq oliy ma'lumotli yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish, yoshlarning, ayniqsa, mamlakat mintaqalaridagi yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va undan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorligini yanada kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda "TEAM University" mas'uliyati cheklangan jamiyatining TEAM universitetini (keyingi o'rinlarda Universitet deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilanishi inobatga olinsin: respublika iqtisodiyoti real sektorining ehtiyojini hisobga olgan holda, tadbirkorlik va boshqaruv, shuningdek, boshqa sohalarda yuqori malakali oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash;

yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni, shuningdek, xorijda faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizni jalb etgan holda yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan keng hamkorlikni amalga oshirish;

respublika va xorijiy davlatlar kadrlarining malakasini oshirish, ilg'or xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qilish asosida tajriba almashish dasturlarini amalga oshirish;

ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Universitet "TEAM University" mas'uliyati cheklangan jamiyati muassisligidagi (keyingi o'rinlarda muassis deb ataladi) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi;

Universitetda o'quv-metodik rahbarlik va ta'lim jarayonining olib borilishi tuziladigan bitimlar asosida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda xorijiy hamkorlar deb ataladi) bilan birgalikda ta'minlanadi;

Universitetda ta'lim jarayoni Universitet tomonidan tasdiqlanadigan va xorijiy hamkorlarning o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq ingliz, o'zbek tillarida va boshqa tillarda tashkil etiladi;

Universitetda ta'lim faoliyati Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan belgilangan tartibda litsenziya berilganidan so'ng, 2020/2021 o'quv yilidan boshlanadi;

Universitet bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom beriladi;

Universitetga abituriyentlarni qabul qilish va bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi va qoidalari Universitet tomonidan xorijiy hamkorlar bilan kelishgan holda belgilanadi;

Universitetda ta'lim raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim xizmatlari, vebinarlar, onlayn-o'qitish, "blended learning" va boshqa zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida amalga oshiriladi;

Universitetda ta'lim olish to'lov-kontrakt asosida, shuningdek yuridik shaxslar — potensial ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan ta'lim grantlari, shuningdek, yoshlarni o'qitish uchun ajratiladigan yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qabul parametrlari hamda to'lov-kontrakt miqdori ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda Universitet tomonidan belgilanadi.

4. Quyidagilar:

muassis Universitetda o'quv-uslubiy va ilmiy yo'nalishda ta'lim jarayonini tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha Times Higher Education va Quacquarelli Symonds kabi yetakchi reyting agentliklarining TOP-1000

reyingiga kiradigan dunyoning yetakchi universitetlari bilan bitim tuzishi;

muassis tomonidan Universitetni rivojlantirish rejalariga muvofiq, respublikaning boshqa viloyatlarida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi Universitetning filiallari tashkil etilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Universitet Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Temur Malik ko'chasi, 146-uy manzilida joylashtirilsin.

6. Universitetga kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojni hamda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari inobatga olgan holda mustaqil ravishda va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochishga ruxsat berilsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, Universitetning joriy faoliyatini moliyalashtirish, uning bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, shuningdek, zarur o'quv va laboratoriya asbob-uskunalari, mebel, kompyuter texnikasi, o'quv va metodik adabiyotlar hamda boshqa moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash:

muassis mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida talabalarni o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

Universitet tomonidan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishda tushadigan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy hamkorlarning mablag'lari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Universitet buyurtmanomasiga ko'ra mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb etiladigan xorijlik professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarga, shuningdek, ularning oila a'zolariga kirish vizalari konsullik yig'implari va haqiqiy xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan yig'implar undirilmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Universitet buyurtmanomasiga ko'ra mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb etiladigan xorijlik professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarga, shuningdek, ularning oila a'zolariga belgilangan tartibda ko'p martalik vizalar berilishi va muddati uzaytirilishini hamda O'zbekiston Respublikasida yashash joyida vaqtincha propiska qilinishi va muddati uzaytirilishini ta'minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi A.A. Abduxakimov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i U.N. Tashkenbayev zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari kotibiyatiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 18-aprel,  
241-son

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.04.2020-y., 09/20/241/0467-son)*